Buyuklar so'zi

| 07 Mart 2012

Odam o`z qilmishini oqlash uchun bir sababdan boshqa har qanday sababni topadi, o`z jinoyatlarini oqlash uchun bir bahonadan boshqa har qanday bahonani topadi, o`z tinchini ta’minlash uchun bir vajdan boshqa har qanday vajni topadi-yu, faqat o`zining QO`RQOQligini o`ylamaydi.
Shou

Yutganing o`zingniki, chaynaganing – gumon.
Cho`lpon

Hammaga do`st bo`lgan odam hech kimga do`st emas.
Arastu

Qisqalik – iste’dodning singlisi.
Chexov

Dunyodagi eng sergap odamlar bekorchilardir.
Pavlenko

O`zgalar sirini oshkor etish – sotqinlik, o`z sirini oshkor etish axmoqlikdir.
Valter

Haqiqiy do`st boshga kulfat tushganda bilinadi.
Ezop

O`rganish hech qachon kech emas.
Kvintilian

Hechdan ko`ra kech.
Tit Liviy

Keldim, ko`rdim, g’alaba qozondim.
Sezar

Chehra – qalbning oynasi.
Sitseron

Aflotun – do`st, lekin haqiqat ulug`roqdir.
Arastu

Davlat – bu mening o`zim.
Lyudovig XIV

Suqrot – do`st, lekin eng yaqin do`st – haqiqat.
Aflotun

Sen pashshadan fil yasamoqchimisan?
Lukian

Insonni qidiryapman.
Diogen

Donishmadlik – fanlarning eng anig'i.
Arastu

Kishi o`zganing baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan hisoblanadi.
Gyote

Yolg`on ham ichkilikbozlikning o`zi. Yolg`onchi o`layotganda ham yolg`on gapirib o`ladi.
Chexov

Haqiqatni yomon ko`radigan odamlar uni dadil aytadiganlarni ham yomon ko`radilar.
Felenon

Taraqqiyot tasodif emas, zaruratdir.
Spenser

Eng katta xato odam o`zini hamma narsada benuqson deb bilishidir.
Karleyl

Haqiqatdan qo`rqmaydigan odamning yolg`ondan qo`rqishiga asos yo`q.
Jeferson

Xayol bilimdan muhimroq.
Enshteyn

G`oya faktdan yuqori turadi.
Balzak

Ko`pgina buyuk haqiqatlar avvaliga masxaralangan.
Shou

Vaqti kelib fan xayoldan o`zib ketadi.
Vern

Inson o`ziga-o`zi bo`ysunishni va o`z qarorlariga itoat qilishni o`rganmog`I lozim.
Sitseron

Jangda o`lgan emas biror bahodir, Bari halok bo`lgan xiyonatlardan.
Shavkat Rahmon

Hayotning har lahzasi go`zal, Umrning har dami g`animat.
Anvar Obidjon

Kim agar do`stlar ila yakdil bo`lur,
Barcha maqsudi aning hosil bo`lur.
Farididdin Attor

Biron-bir narsani bajarolmayman deb ko`ngilga keltirdingizmi, shu paytdan boshlab uni amalga oshirish g`oyat mushkul bo`lib qoladi.
Benedikt Spinoza

Inson qanchalar ajoyib? Agr u chinakam inson bo`lsa.
Menandr

Harakatsizlikda baxt yo`q.
Fedor Dostoyevskiy

Odam tushunishi iloji yo`q narsani ham tushunmog`i kerak: aks holda u haqda bosh qotirmagan bo`lar edi.
Iogan Gyote

Yaxshi ishlarning yana bir afzalligi shundaki? U qalbni yuksaltiradi va uni yanada ezgu ishlarga moyil qiladi.
Jan Jak Russo

Birovni o`rgatishingga o`zing o`ganishing uchun lozim bo`lgandan ko`ra ham ko`proq aql kerak.
Mishel de Monten

Aqlli bo`lish kifoya emas, muhimi uni ishlata bilishdir.
Rene Dekart

Bilim — kuch? Kuch esa bilimdadir.
Frensis Bekon

Masalaning bilimning butunligida emas, aqlning butunligida.
Demokrit